


## FURQAT ASARLARINING 1975-YIL VA 1980-YILGI NASHRI



**Abdullayeva Durdona Rustamovna,**  
*Buxoro davlat universiteti, Matnshunoslik va  
adabiy manbashunoslik II bosqich magistranti.*  
[d.r.abdullayeva@buxdu.uz](mailto:d.r.abdullayeva@buxdu.uz)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Furqat asarlari nashrlaridagi tafovutlar va o'xshash jihatlar haqida ma'lumotlar berilgan..

**Kalit so`zlar:** “Ma'rifikat poeziyasi”, Xolid Rasul, “Tanlangan asarlar”, “Furqat she'riyatidan”, Furqatning g'azal va masnaviyalar farqi

“Furqatdagi ma'rifikatparlikning yetakchi motivi maorif va ilmning propagandasidir. Furqat ijodini uch qismga taqsimlab, ikkinchi va uchinchi qismlarini lirika va publitsistika deb atasak, birinchi qismini “ma'rifikat poeziyasi” deb belgilash to`g`ri bo`lur edi”.<sup>1</sup>

Demokrat shoir – Furqat ijodiyotini o`rganar ekanmiz, avvalo, shoir asarlarining nashrlarini jamlagan holda o`zaro qiyos usulida taqqoslab, ularning o`xshashlik va tavofutli jihatlarini o`rgandik. Bunda biz uchun asosiy manba bo`lib Xolid Rasul tomonidan 1959-yili nashr ettirilgan 2 jilddan iborat “Tanlangan asarlar”i xizmat qildi.

Qiyosga tortmoqchi bo`lgan nashrlarimiz esa quyidagilar:

Furqat . Tanlangan asarlar. [Nashrga tayyorlovchi X.Rasul] T., Adabiyot va san'at nashriyoti 1975. – 296b.

2. Furqat. Furqat she'riyatidan(Tuzuvchi: R.Xolid:) T.:O`zbekiston KP MKnashriyoti,1980. – 128b.

1975-yildagi nashr bilan 1980-yilda nashr etilgan devonlarni taqqoslaydigan bo`lsak, avvalo, ularning nomlanishida farqlar mavjud. 1975-yilda nashr etilgan devon “Tanlangan asarlar” nomi ostida, 295-betdan iborat. 1980-yilda nashr etilgan devon “Furqat she'riyatidan” nomi ostida, 127-betdan tashkil topgan. Devonlar mundarijasi farqli ravishda 1975-yildagi nashrda g`azallar, masnaviy va manzum asarlar, muxammas, musaddas, mustazod va maktublar sarlavha ostida tartib bilan raqamlangan, 1980-yildagi nashrda esa faqatgina masnaviy va manzum asarlar hamda maktublar sarlavha ostida raqamlanib, shoirning g`azal, muxammas, musaddas, mustazod janriga oid she'rlari esa umumiy nomlar ostida tartiblangan. Bu kabi umumlashtirish tabiiyki, kitobxonga qiyinchilik tug`diradi. Masalan, 1980-yildagi nashrda o`quvchi shoir g`azalining nomi orqali mundarija yordamida o`zi

<sup>1</sup> O`zbekiston progressiv ijtimoiy-falsafiy fikr tarixiga oid materiallar”, 317-bet, Toshkent 1957-yil

izlagan g`azalni tezda topib olishi mumkin. 1975-yildagi nashrda esa she'rlarning umumiyligi g`azallar nomi ostida berilishi kitobxonga izlagan g`azalni topishda qiyinchilik tug`diradi.

1975-yildagi nashrda shoir asarlarining nisbatan kam qismi kiritilgan. 1980-yildagi nashrda shoir qalamiga mansub 160 ta g`azal kiritilgan bo`lsa, 1975-yildagi nashrda esa 87ta g`azal kiritilgan. Quyida har ikkala nashrda mavjud g`azallarning o`zaro farqlari haqida fikr yuritamiz. Avvalo, ikkala nashrda mavjud g`azallarning nomlarini keltirib o`tamiz:

1.“Bahor ayyomida”; 2.“Umr xush o`tmas”; 3. “Ohista-ohista”; 4. “Ruxsori ahmar ustida”5.“Kashmirda”; 6. “Orazing qachon ko`rdi”; 7. “Bog`da”; 8. “Yuzu qadding ko`rub”; 9. “Lahza-lahza”; 10. “Xok o`ldi tanim”; 11. “Lola”; 12.“Kelmadi holim so`rab”; 13. “Bu kecha”; 14. “Bilmading”; 15. “Oy yuzin”; 16.“Nigoro”; 17. “Do`sstar, ahboblar”; 18.“Qachong`acha”; 19.“Yo`lingda”; 20. “Munavvardakkina”; 21.“Ozgina”; 22. “Yorug` aylagan sitora”; 23. “Gul bozorida”; 24. “ Bir nigori yoshgina”; 25. “Aylab shitob”; 26. “Pari ro`yim”; 27. “Dilrabo”; 28. “Tabassum birla chiqdi”; 29. “Istab”; 30.“Kelinchak”; 31. “Surating”; 32. “Nigori, dilnavozim”; 33. “Ko`zlarining”; 34. “May ichib”; 35. “Ko`zung”; 36. “To`kkali jallod erur”; 37. “Diloromim mening”; 38. “Jonim mening”; 39. “Mahvasho”; 40. “Qomating”; 41. “Ey gul ruhim”; 42. “Ketmang”; 43. “Fan aylading”; 44. “Qoshing”; 45. “Ko`rung”; 46. “Qulung”; 47. “Dilrabo”; 48. “Farqi buldur”; 49. “Firoqing birla”; 50. “Sening”; 51. “Kokuling”; 51. “Xulqi xush”; 52. “Qomating”; 53. “Iyd”; 54. “Ehtiyoj”; 55. “Bormasmiz”; 56. “Vasl arokim”; 57. “Xummoringiz”; 58. “Anbarin xattoki”; 59. “Sarvinoz”; 60. “O`rtanur”; 61. “Malohat gulshani”; 62. “Ko`zlarim qon yig`ladi”; 63. “Shakar to`kildi”; 64. “Gulbarra ko`ylakka kiyding”; 65. “Bo`ston isi”; 66. “Nozik”; 67. “Ruxsor gul”; 68. “Bulbulg`a xitob”; 69. “Labing g`uncha”; 70. “Ishqingda kuyib jono”; 71. “Tig`i hajringda”; 72. “Alamlilik qumriman”; 73. “Andijon”; 74. “Andalibi hayronlar”; 75. “Oy kabi”; 76. “Bir pari hajrida”; 77. “Keling, ey ahboblar”; 78. “Ul qaro ko`z”; 79. “Kechalar”; 80. “Bir kelib ket”; 81. “G`alat”; 82. “Fasli bahor emasnu”; 83. “Sayri guliston aylagach”; 84. “Hech asar yo`q”; 85. “Orazing”; 86. “Ohkim hamdard yo`q”; 87. “Koshki”.

Ushbu g`azallar ham ikkala nashrda bir xil tarzda berilmagan. Ba`zilarida imloviy xatolar berilgan. Ba`zilarida esa butun boshli bayt tushirib qoldirilgan.

Endi e'tiborimizni mana shu g`azallar tahliliga qaratamiz.

Yuqorida ayttilganidek, 1980-yilgi nashrda g`azallar nomba-nom keltirilmagan dedik, lekin shoir Furqatning qolgan asarlari ya`ni masnaviyatlari, shuningdek, maktublari ham har biri alohida nom ostida mundarijada raqamlashtirilgan. Muxammas, musaddas va mustazodlari umumiyligi nom ostida berilgan.

	<b>Furqat masnaviylari</b>	<b>1975-yildagi nashri</b>	<b>1980-yildagi nashri</b>
1	Ilm xosiyati	Mavjud	Mavjud
2	Vistavka xususida	Mavjud	Mavjud
3	Toshkand shaharidagi vistavka xususida	Mavjud	Mavjud
4	Yana vistavka xususida	Mavjud	Mavjud
5	Gimnaziya	Mavjud	Mavjud
6	Akt majlisi xususida	Mavjud	Mavjud
7	Toshkand shahrida bo`lg`on nag`ma xususida	Mavjud	Mavjud
8	Nag`ma va nag`magar va aning asbobi va nag`ma ta`siri xususida	Mavjud	Mavjud
9	Shoir ahvoli va she`r mubolag`asi xususida	Mavjud	Mavjud
10	Rus askarlari ta`rifida	Mavjud	Mavjud
11	Suvorov haqida	Mavjud	Mavjud
12	Yunon multkida bir afsona	Mavjud	Mavjud emas

	<b>Furqat manzum asarlari</b>	<b>1975-yildagi nashri</b>	<b>1980-yildagi nashri</b>
1	Bu nechuk savdo	Mavjud emas	Mavjud
2	Istar ko`ngul	Mavjud	Mavjud
3	O`ynabtular	Mavjud	Mavjud
4	Kishi holimni bilmas	Mavjud	Mavjud
5	Adashganman	Mavjud	Mavjud
6	O`zingsan	Mavjud	Mavjud emas
7	Biri	Mavjud	Mavjud emas
8.	Ko`rub	Mavjud	Mavjud emas
9	Do`st	Mavjud	Mavjud emas
10	Vasl orzusi	Mavjud	Mavjud emas
11	Sadqasi	Mavjud	Mavjud emas
12	Kavlama	Mavjud	Mavjud emas
13	Sayding qo`yaber	Mavjud	Mavjud emas
14	Uch xaroboti	Mavjud	Mavjud emas
15	Etmadim	Mavjud	Mavjud emas
16	Aqlimni oldi	Mavjud	Mavjud

	Furqat maktublari	1975-yildagi nashri	1980-yildagi nashri
1.	Muqimiya xat	Mavjud	Mavjud
2.	Furqatning Muqimiya xati	Mavjud	Mavjud
3.	Sabog`a xitob	Mavjud	Mavjud emas
4.	Bombaydan xat	Mavjud	Mavjud
5	Yorkand shahridan Toshboltuga xat	Mavjud	Mavjud

Ushbu maqolada nashrlar qiyosidagi ayrim g`azallarning tafovutli jihatlarini keltiramiz. Furqat g`azallari hayotning turli qirralarini o`zida aks ettiradi. A. Abdug`afurov o`zining “Zokirjon Furqat” kitobida Furqat g`azallari misolida shir ijodining ayrim davrlarini, uning ijodiy takomil sari yo`nalish jarayonini yaxshi va ishonarli tarzda tahlil etgan.

Dastlab shoirning “Ruxsori ahmar ustida” nomli g`azalni ko`radigan bo`lsak 1975-yildagi nashrda ushbu g`azal 8 baytdan iborat. 1980-yildagi nashrda esa 7 baytdan iborat. Bu nashrda 5-baytdan keyin 6-bayt

Ikki jodu nargising solg`ay jahong`a fitnalar,

Bo`lmasa uryon qoshingdan ikki xanjar ustida misralari tushirib qoldirilgan.

Ushbu g`azal shoirning 1959-yilda nashr etilgan “Tanlangan asarlar”ida ham 8 baytlik shaklda berilgan. Demak, ikkita 1959-yilgi va 1975-yilgi nashrlarda g`azal 8bayt shaklida, 1980-yilgi nashrda esa 7 bayt shaklida berilgan.

Shoirning yana bir “Kashmirda” g`azalida o`zgargan jumlanı ko`rish mumkin. Ushbu g`azal 9baytdan iborat bo`lib, 1975-yilgi nashrda 6-baytda “zulfiga” va 1975-yilgi nashrda ayni shu bayt “zulmiga” so`zi tarzida berilgan. Quyida tafovutli baytlarni keltiramiz.

1975-yildagi nashrda:

Forig` ermas hech kim ul dilraboning ishqidin,

Zulfiga dilbastalig` har bir juvonu pirda.

1980-yildagi nashrda:

Forig` ermas hech kim ul dilraboning ishqidin,

Zulmiga dilbastalig` har bir juvonu pirda.

1959-yildagi “Tanlangan asarlar”nashrida ushbu g`azalning 6-bayti “zulmiga” tarzida berilgan. Demak, ushbu g`azalda qaysi so`z muqobilligini topish uchun to`liq g`azal matniga yuzlanamiz. Shoир Kashmirda bir parivashga oshiq bo`lib qoladi va baytma- bayt o`z mahbubasining sifatlarini ta`riflashga tushadi. Dastlabki baytlarda shoир ma’shuqaning yuz, ko`z , qoshlarining go`zalligini chiroylı chizgilarda keltiradi va 6-baytdagi so`z “zulfi”(1975) yoki “zulmi”(1980) jumlalarining qay biri muqobil ekanligini topish uchun keying baytlarga murojaat qilamiz. 7-bayt barcha nashrda:

Aydim: “Ey, jon ofati, zulfingga bo`lmishman asir! ”



Aydi: "Bu savdoni qo'y, umring o'tar zanjirda!" shaklida berilgan.

Anglashiladiki, biz muqobilini izlayotgan so'z "zulfiga" jumlesi hisoblanadi. Sababi shoir birin- ketin ma'shuqaning yuzi, ko'zi, qoshini ta'riflagandan so'ng bevosita uning sochi(zulfi)ga murojaat qiladi. 6-baytdagi jumla "zulm" emas "zulf" ekanligi yuqoridagi 7-savol-javob shaklidagi baytda o'z isbotini topgan.

Yuqoridagi g'azallar singari shoirning "Orazing qachon ko'rdi" nomli g'azalida shu kabi holatlarni kuzatish mumkin. Ushbu g'azal 1959-1975-yilgi nashrlarda 10bayt shaklida, 1980-yilgi nashrda esa 9 bayt shaklida berilgan. 1980-yildagi nashrda 9-bayt Istaram diloramim topsam jahon yangligi,

Jon kabi nihon etsam jismi notavon ichra bayti tushirib qoldirilgan.

Xulosa qilib aytganda,yuqorida tahlilga tortilgan g'azallar ishimizning ma'lum qismini tashkil qiladi. Ushbu nashrlar qiyosida juda ko'p tafovutli jihatlarni kuzatdik. Jadvallarda 1975-yidagi hamda 1980-yildagi 2ta nashrlarning o'zaro farqli va o'xhashlik jihatlarini keltirib o'tdik.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. O`zbekiston progressiv ijtimoiy-falsafiy fikr tarixiga oid materiallar", 317-bet, Toshkent 1957-yil
2. Furqat . Tanlangan asarlar. [Nashrga tayyorlovchi X.Rasul] T.,Adabiyot va san'at nashriyoti 1975. – 296b.
3. Furqat. Furqat she'riyatidan(Tuzuvchi: R.Xolid:) T.:O`zbekiston KP MKnashriyoti,1980. – 128b.